**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZILIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

NamMQI
O‘quv-uslubiy boshqarma
№ 423
«03» 07 2024 y.

**“Tasdiqlayman”**
Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori
_______ Sh.T.Ergashev
2024 yil “ 03” 07

# INSTITUTSIONAL IQTISODIYOT

FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohalari:** | 300 000 - | Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohalari:** | 310 000 - | Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishlari:** | 60310100 - | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

| Fan/modul' kodi<br>INSECO6 | | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>3 | Kreditlar<br>6 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul' turi<br>Majburiy fan | | Ta'lim turi<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>6 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil Ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Institutsional iqtisodiyot | | 90<br>(44 m / 46 a) | 90 | 180 |

2. **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o`qitishdan maqsad** - talabalarda yangi institutsional iqtisodiyot fanining shakllanishi va rivojlanishining nazariy, amaliy asoslarini, institutsional muhim o'zgarish qonuniyatlarini bilish, ko`nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifalari** - talabalarga iqtisodiyotda institutlar tizimi rivojlanishi, mulk huquqlari, ular shakllari faoliyatiga ta`sir qiluvchi omillarni, davlat va uy xo`jaligi kabi institutlarni, institutsional islohotlarni tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o`rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: "Institutsional iqtisodiyot" faniga kirish.**

"Institutsional iqtisodiyot" fani predmeti, mazmuni, tamoyillari va usullari. Institutsional nazariyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi. Institutsional iqtisodiyotning metodologik asoslari. Institutsional iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari

**2-mavzu: Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli.**

"Institut", "norma" tushunchalarining mohiyati va mazmuni. Institutning jamiyat rivojlanishilagi roli. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi. Institutsional matritsa.

**3-mavzu: O`yinlar nazariyasi va o`zaro hamkorlikni modellashtirish.**

O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorlikni modellashtirish asoslari. O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari. Takrorlanuvchi o'yinlar va ularning mohiyati, modellari. Muvozanat turlari va ularni izlash yo'llari.

**4-mavzu: Kouz teoremasi va transaktsion xarajatar.**

Transaktsiyalar tushunchasi va uning ahamiyati. Kouz teoremasi. Transaksiya xarajatlarini tahlil qilishga yondashuvlar va ularni kamaytirish vositalari. Transaktsiya xarajatlarining tavsiflanishi. Transformatsiya xarajatlari, ularni tahlil qilishga nisbatan Nort yondashuvi.



**5-mavzu: Xufyona iqtisodiyotning institutsional nazariyasi.**

Xufyona iqtisodiyot tushunchasi. Xufyona iqtisodiyotning institutsional nazariyasi. Norasmiy iqtisodiyot bilan bog'liq muammolar.

**6-mavzu: Reja instituti va bozor instituti.**

Reja instituti va bozor instituti tushunchasi. Iqtisodiyot faoliyat yuritishining normalar tizimi. Buyruqbozlik va bozor iqtisodiyoti tizimlari. Pareto bo'yicha optimallik nazariyasi.

**7-mavzu:Mulk huquqlari nazariyasi va mulkchilik shakllarining rivojlanish evolyutsiyasi.**

Mulk huquq nazariyasi va mulkchilik shakllarining rivojlanish evolyutsiyasi. O'zbekistonda mulkiy munosabatlar tizimi. Mulkchilik ta'riflarining tahlili. Mulkchilik institutiga oid talqinlarning turkumlanishi.

**8-mavzu: Shartnomalar nazariyasi.**

Shartnoma tushunchasi va uni bozor iqtisodiyotidagi roli. Shartnomalar tarkibi va ularning asosiy shartlari. Munosabatlarni ko'p pog'onali boshqarish.

**9-mavzu: Tashkilotni amaliy tahlil qilish nazariyalari.**

Tashkilot tushunchasi. Firma ichidagi nizolarni tahlil qilish, ularni kelishuvlar nazariyasi asosida hal etish.

**10-Mavzu: Firma nazariyasi.**

"Prinsipal" bilan "agent" o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosi. "Prinsipal-agent" muammolarini hal etish variantlari. Firmaning ichki tuzilmasi.

**11-mavzu: Firmaning tashkiliyhuquqiy shaklini tahlil qilishi.**

Firmalar tipologiyasi va ularning rivojlanish trayektoriyasi va firmalarning asosiy xillari. Firma va uning turlari. Mulkiy huquqlarning tavsiflanishi.

**12-mavzu: Davlat institutsional tashkilot sifatida.**

Davlatning funksiyalari. Davlatning institutsional tabiati. Davlatning mohiyati va uning ta'rifi. Davlatning shartnomaviy va ekspluatatorlik konsepsiyasi. Davlat va davlat tomonidan tartibga solish tabiatining kontseptual asoslari.

**13-mavzu: Oila va uy xo'jaligi faoliyatining nazariy asoslari.**

Oila ta'rifi.Uy xo'jaligi ta'rifi, uning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaligi turlari va uning oila bilan o'zaro bog'liqligi. Uy xo'jaligi turli shakldagi iqtisodiyot davrlarida faoliyat yuritishi va uning funktsiyalari. Uy xo'jaligi va oilaning iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va statistik belgilanishi.

**14-mavzu: Rivojlanishining institutsional nazariyasi va tashkiliy innovatsiyalar sub'ektlari.**

Rivojlanish nazariyasining neoklassik varianti. Innovatsiyalarni klasslarga ajratish. Rivojlanishning institutsional nazariyasi va tashkiliy innovatsiyalar sub'ektlari tushunchasi. O'zbekistonda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi. Innovatsiyalar tasnifi.

**15-mavzu: Institutlarning rivojlanish evolyutsiyasi.**

Institutlarni vaqtga ko'ra o'zgarishi. Institutsional o'zgarishlar nazariyasining asosiy qoidalari. Institutlar rivojlanishining evolyutsion varianti. O'zbekistonda mustaqillik yillarida qayta tiklangan milliy an'analar va urf-odatlar. (Navro'z bayrami instituti).

**16-mavzu: Institutlarni import qilish.**

Iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlovchi institutlar. Institutlarni import qilish tushunchasi. Institutlar rivojlanishining inqilobiy va muqobil variantlari. Jahon amaliyotida keng tarqalgan institutlar faoliyati.

**17-mavzu: Ijtimoiy soha iqtisodiyoti tushunchasi va mazmuni.**

Ijtimoiy sohaning roli, mohiyati va xususiyatlari. O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish. Ijtimoiy soha tarmoqlari. Ijtimoiy sohada ishlab chiqarish va noishlab chiqarish. Ijtimoiy soha tarmoqlarida mehnat va asosiy fondlarning xususiyatlari.

**18-mavzu: Ijtimoiy sohani tartibga solishda davlatning roli.**

Davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. Xarakatlar strategiyasi ijtimoiy masalalarning o'rni. Davlatning ijtimoiy dasturlari. Ijtimoiy sohaning asosiy tarmoqlarida davlat va bozorning roli. O'zbekiston aholisini himoya qilish va ijtimoiy tizimni rivojlantirish. Ijtimoiy siyosat va uning yo'nalishlari. Ijtimoiy siyosatning tushunchasi, uning tarkibiy qismlari. O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning maqsadi va asosiy mazmuni. Ijtimoiy siyosatning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati

**19-Mavzu: Ta'lim tizimi va undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni kadrlar tayyorlashdagi roli. Ta'lim tizimini ijtimoiy xizmatlarda tutgan o'rni. Ta'lim tizimini rivojlantiri yo'llari.

**20-mavzu: Aholi turmush darajasi va uning asosiy indikatorlari.**

Aholi turmush darajasining tushunchasi va mohiyati. Jamiyat boyligini aniqlashda har xil yondashuvlar. Daromadlarni taqsimlash modellari. Djini koeffitsienti. Aholi daromadlari va uni tartibga solish.



**21-mavzu: Sog'liqni saqlash va tibbiy hizmat ko'rsatishni rivojlantirish.**

O'zbekistonda tibbiyotni zamonaviy tashkil etish vazifalari. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishda davlat dasturi. Sog'liqni saqlash va uning ijtimoiy sohadagi ahamiyati.

**22-mavzu: Kommunal xo'jalik tarmog'i iqtisodiyoti.**

Respublika iqtisodiyotida kommunal xujaligi xizmatining o'rni. Uy-joy kommunal xujalik tartibi. O'zbekistonda uy-joy kommunal xo'jalik tarmog'ini boshqarish tizimi.

**23-mavzu: Aholini ijtimoiy himoyalash asoslari. Ijtimoiy ta'minot.**

Ijtimoiy himoyaning mazmuni va mohiyati. Aholini ijtimoiy himoyalashda chet el davlatlarining tajribasi. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi. Iste'mol bozori, iste'mol savatchasi. Ijtimoiy ta'minotning ahamiyati va belgilari. O'zbekistonda ijtimoiy ta'minotning rivojlanish kontseptsiyasi. Nafaqa tizimi. Xarakatlar strategiyasida ishsizlikni oldini olish chora-tadbirlari. Ijtimoiy ta'minotda ijtimoiy sug'urta tushunchasi.

## III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. "Institutsional iqtisodiyot" faniga kirish.
2. Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli.
3. O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorlikni modellashtirish.
4. Kouz teoremasi va transaktsion xarajatar.
5. Xufyona iqtisodiyotning institutsional nazariyasi.
6. Reja instituti va bozor instituti.
7. Mulk huquqlari nazariyasi va mulkchilik shakllarining rivojlanish evolyutsiyasi.
8. Shartnomalar nazariyasi.
9. Tashkilotni amaliy tahlil qilish nazariyalari.
10. Firma nazariyasi.
11. Firmaning tashkiliyhuquqiy shaklini tahlil qilishi.

| | |
|---|---|
| | 12. Davlat institutsional tashkilot sifatida.<br>13. Oila va uy xo'jaligi faoliyatining nazariy asoslari.<br>14. Rivojlanishining institutsional nazariyasi va tashkiliy innovatsiyalar sub'ektlari.<br>15. Institutlarning rivojlanish evolyutsiyasi.<br>16. Institutlarni import qilish.<br>17. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti tushunchasi va mazmuni.<br>18. Ijtimoiy sohani tartibga solishda davlatning roli.<br>19. Ta'lim tizimi va undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.<br>20. Aholi turmush darajasi va uning asosiy indikatorlari.<br>21. Sog'liqni saqlash va tibbiy hizmat ko'rsatishni rivojlantirish.<br>22. Kommunal xo`jalik tarmog'i iqtisodiyoti.<br>23. Aholini ijtimoiy himoyalash asoslari. Ijtimoiy ta`minot.<br>Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogic va axborot texnologiyalardan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:<br>1. Reja va bozor institutlari qonuniyatlari.<br>2. Transaktsiyalar tushunchasi va ularning ahamiyati.<br>3. Tashqi samaralar ta`rifi va ularning klassifikatsiyasi.<br>4. Mulkchilik instituti rivojlanishining yevropa va Osiyo mamlakatlarida tarkib topgan yo`llari.<br>5. Xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalari.<br>6. Institutlar rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari.<br>7. Shartnoma tushunchasi va uni bozor iqtisodiyotdagi roli.<br>8. Bozor va uning o`ziga xos tomonlari.<br>9. Zamonaviy firmalar va ularning funktsiyalari.<br>10. Korporativ tuzilmalarva ular rivojlanishi istiqbollari.<br>11. Tashkiliy tuzilmalarni taxdil qilishning mohiyati va vazifapari.<br>12. Davlatning tashkilot sifatida funktsiyalari va vazifalari.<br>13. Uy xo`jaligi turlari va uning oila bilan o`zaro bog'liqdigi.<br>14. Institutlar rivojlanish evolyutsiyasi.<br>15. Rasmiy institutlarni import qilish.<br>16. Iqtisodiy o'sishning huquqiy – institutsional omillari.<br>17. Ijtimoiy soha ob'ektlari faoliyatidagi institutsional islohotlar.<br>18. Ta'lim tizimida strategik vazifalar va maqsadlar istiqboli.<br>19. Jahon mamlakatlari tajribasida ijtimoiy davlat dasturlari. |



| | |
|---|---|
| | Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>"Institutsional iqtisodiyot" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:<br>• Iqtisodiy rivojlanishning umumiy asoslari, bosqichlari, o'zgarish sabablari va oqibatlari; hozirgi zamon iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari; iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar va modellar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;<br>• iqtisodiyot asoslarini; milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;<br>• iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini bilgan holda samarali qo'llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarning) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilgan holda iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilishmalakasiga ***ega bo'lishi kerak***. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>• esse, tezis va maqola yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;<br>• jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim;<br>• muhokamalarda ishtirok etish;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• loyiha ishi bajarish;<br>• mustaqil ishlarni bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni echish;<br>• so'rov o'tkazish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'gri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki test sinovlarini topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: O'quv qo'llanma. — T.: YANGI NASHR, 2011. - 248 b. |

| | |
|---|---|
| | **2.Abdurahmonov Q.X., Abduraxmonov X.X., Qurboniyozov I.R. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. T: TDIU, 2010. -268 bet.**<br>3. Ishmuxamedov A.E., Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Sunnatov M.N. Ijtimoiy soha ikgisodiyoti. Darslik. T.: TDIU, 2007. - 250 bet.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1.Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muxamedjonova G.YA. "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" uslubiy qo'llanma. T: TDIU, 2008. -160 b.<br>**Internet saytlari:**<br>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.tradingeconomics.com – ekonomicheskiye pokazateli |
| 7. | **Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul' uchun ma'sullar:**<br>O.Aripov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.d.<br>M.Isakov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>I.Q.Sirojiddinov – NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori, i.f.n.<br>M.Bo'stonov – NamMTI "Iqtisodiyot" kafedrasi professori, DSc. |